

ISSN:3060-4567 Modern education and development
DAVLAT XARIDLARI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH
VA UNING DAVLATIMIZ IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI

Usmonov Shavkatjon Shukurovich

Jamoat xavfsizligi universiteti,

“Iqtisodiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

ANNOTASIYA: Maqolada davlat xaridlari tizimini takomillashtirish masalalri yoritilgan, undan unumli foydalanish, istiqbollari va xorij tajribasi qiyoslangan. Makroiqtisodiy ko‘rsatgichlarda davlat xaridlarining o‘rni tahlil qilingan. Davlat xaridlarinig 2018 yil “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingandan keying holati raqamlarda o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: davlat xaridlari, procurement (xaridlar), sotib olish san’ati, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonuni, davlat xaridlarini mexanizmi, davlat xaridlari sikli, elektron tizimlar, budjet buyurtmachilar, subyektlar, UNCITRAL.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА
ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЗАКУПОК И ЕГО РОЛЬ В ЭКОНОМИКЕ
НАШЕГО ГОСУДАРСТВА**

АННОТАЦИЯ: В статье освещаются вопросы совершенствования системы госзакупок, сравниваются ее эффективность, перспективы и зарубежный опыт. Проанализирована роль государственных закупок в макроэкономических показателях. Состояние государственных закупок после принятия закона О государственных закупках 2018 года изучено в цифрах.

Ключевые слова: государственные закупки, procurement (закупки), искусство закупок, закон О государственных закупках, механизм государственных закупок, цикл государственных закупок, электронные системы, бюджетные заказчики, субъекты, UNCITRAL.

ISSN:3060-4567 Modern education and development
IMPROVING THE MECHANISM OF PUBLIC PROCUREMENT
AND ITS ROLE IN THE ECONOMY OF OUR COUNTRY

ANNOTATION: *The article covers the issues of improvement of the system of state-owned lari, compares its effective use, prospects and foreign experience. The role of public procurement in macroeconomic indicators is analyzed. Public procurement's status after the passage of the Public Procurement Act 2018 has been studied in numbers.*

Keywords: *public procurement, the art of procurement, the law “on public procurement”, the mechanism of public procurement, the cycle of Public Procurement, electronic systems, budget customers, entities, UNCITRAL.*

Mamlakatlarda budjet mablag‘laridan oqilona va tejamkorlik asosida foydalanishda davlat xaridlari muhim ahamiyat kasb etadi. Keyingi paytda mamlakatimizda davlat xaridlari tizimi rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biridir. Davlat xaridlari budjetdan ajratilgan mablag‘larni maqsadli va raqobatli usulda shaffof ishlatilishi bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu tizim investitsion muhitni yaratishda ham katta ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridlari tizimini takomillashtirish budjet xarajatlari samaradorligini oshirish dasturining ustuvor vazifalaridan o‘rin olgan hamda dolzarb hisoblanadi.

AQSH yoki Yevropa Ittifoqi mamlakatlari kabi bozor iqtisodiyoti asoslari allaqachon shakllangan iqtisodiy rivojlangan ko‘plab mamlakatlarda davlat xaridlari tizimi davlat boshqaruvining, ayniqsa, budjet mablag‘larini boshqarishning samarali vositasi hisoblanadi. Rivojlangan g‘arb mamlakatlarida davlat xaridlarini tashkil etishda qo‘llaniladigan boshqaruv texnologiyasi shakli ko‘pincha procurement (xaridlar) deb ataladi.

O‘zbek tilidagi “xarid” termini (inglizchada, *procurement*) «sotib olish» ma’nosi bilan bir ma’noda ishlatilib, zamonaviy tushunchalarda mahsulotlarni, bajarilgan ishlarni yoki ko‘rsatilgan xizmatlarni ma’lum haq evaziga olish demakdir (inglizchada, procurement of goods, works and services).

Tadbirkorlik lug‘atida quyidagi ta’rif berilgan: "xarid - bu davlat xaridlarini tashkil etish, obyektlarni ijaraga berish, tanlov savdolarida davlat buyurtmalarini taqsimlash, tartiblarni ratsionalizatsiya qilish va qulaylashtirish uchun imtiyozlar berish jarayonida qo‘llaniladigan amaliy usullar va yo‘llar, shuningdek ularni ishtirokchilar uchun,adolatni saqlash, korrupsiyaning oldini olish vositalar majmuidir”[1].

Ko‘pgina iqtisodchilar xaridni - ***sotib olish san’ati*** deb atashadi.

Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan U.Burhanov fakriga ko‘ra
“Davlat xaridari - bu davlat ehtiyojlari uchun tovarlar va xizmatlarni qisman yoki to‘liq davlat mablag‘lari evaziga sotib olishdir”[2].

Xalqaro miqyosdagi ta’riflarga e’tibor qaratsak, Jahonda davlat xaridlarinig shakllanishi va rivojlanishidagi eng muhim hujjati 1994 yil BMTning xalqaro savdo huquqi Komissiyasining 27-sessiyasida (UNCITRAL - United Nations Commission on International Trade Law) qabul qilingan Namunaviy “Tovarlar va xizmatlarni sotib olish to‘g‘risida” Qonuni hamda 2011 yil 09 dekabr kunidagi 82-yalpi majlisida BMT Bosh Assambleyasining 66/95 rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro savdo huquqi bo‘yicha komissiyasining “Ommaviy xaridlar to‘g‘risida”gi namunaviy qonuni mavjud xaridlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirishda davlatimizga katta yordam beradi va uyg‘un xalqaro iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishga va iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga olib keladi.

Unda quyidagi ta’rif berilgan - "Xaridlar" yoki "ommaviy xaridlar" sotib oluvchi tashkilot tomonidan tovarlar, ishlar yoki xizmatlarni sotib olishni anglatadi”.

Ko‘plab iqtisodchi olimlar asarlarida Davlat xaridining mohiyatini, tamoyillari, shakllari va uslubiy yechimlarini tadqiq qilganlar.Davlat xaridlari bo‘yicha nazariy, uslubiy, amaliy yo‘nalishlari xorijlik olimlar S.Arrowsmith, S.Treumer, J.Fej, L.Jiang, K.V.Thai, P.Wang, P.Bolton, Yu.Il’ina, N. Dimitri, G. Piga, Dj. Spanolo, V.A.Fedorovich, Dj. Edler, M. Falagario, G. Uolker, S. Brammer, Dj. Reymond, T.V.Frayberg tadqiqotlarida, postsoviet va MDX olimlari O.V.Ponomaryova, V.N.Kiselyova, V.I.Abramov, V.I.Kuznetsov,

I.I.Smotritskaya, V.V.Melnikov, L.V. Andreyeva, Galanov V. A., Grishina O. A., Shibaev S. R., V.Ye.Belov, L.M.Davletshina, L.G.Karanatova., N.A.Prodanova, E.I.Zatsarinnaya, A.B.Barixin, A.V.Moskalyova, O.Sizonenko ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridlarining jabhalari M.G.Muminov, A.Vahobov, N.Jumayev, N.Haydarov, G.Qosimova, M.Olloyorov, D.Xolmuradov, T.Atamuradov, U.Burxanov, U.O‘roqov, G.Raximova, R.A.Nabiiev va R.K.Ariqbayev kabilarning ilmiy asarlarida chuqur o‘rganilgan.

2018 yilda qabul qilingan “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun va 2021 yilda Qonun yangi tahrirda qabul qilinishi bilan ochiqlik, shaffoflik va raqobatga asoslangan Davlat xaridlari tizimi ancha mukammallashtirildi hamda **asosiy tushuncha sifatida “Davlat xaridlari** – davlat buyurtmachilarining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo‘lgan ehtiyojlarini pulli asosda ta’minlash jarayonidir”[3] deb belgindi.

Davlat ehtiyojlari uchun xaridlarni prognozlashtirish, rejalashtirish, amalga oshirish hamda nazorat etish bilan bog‘liq barcha jarayonlar **davlat xaridlari tizimini** yuzaga keltiradi [4].

«O‘zbekiston - 2030» strategiyasi”ning 89 maqsadida “Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish holatlarini 2 barobarga kamaytirishga erishish hamda Davlat xaridlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish orqali amalga oshirishda mablag‘larni talon-toroj qilish holatlari, tovar va xizmatlarning narxi bozor qiymatidan oshib ketishining oldini olish bo‘yicha jamoatchilik nazoratini to‘laqonli joriy qilish”[5] ga alohida urg‘u berilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunida Davlat budgeti mablag‘lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilot hamda Davlat budgetidan va davlat maqsadli jamg‘armalari budgetlaridan mablag‘lar oladigan yuridik shaxslar davlat xaridlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxs sifatida asosiy tushunchalarida “davlat buyurtmachisi” deb birlashtirildi.

Davlat buyurtmachilar (qonunning 19-moddaga asosan) o‘z o‘rnida budget va korporativ buyurtmachilarga bo‘lindi. Ya’ni,

a) budget buyurtmachilar:

- davlat organlari va muassasalari (hukumat, vazirliklar, davlat qo‘mitalari, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar (prokuratura, ichki ishlar vazirligi va uning organlari va boshqalar), mudofaa ishlari organlari agentliklar, markazlar, inspeksiyalar, hokimiyat, xalq deputatlari kengashlari, sud, majburiy ijro bo‘limlari hamda konstitutsiyaviy nazorat idoralari va h.k)[6];

- budjet tashkilotlari (maktabgacha ta’lim tashkiloti, umumta’lim o‘quv muassasalari, akademik litseylar, sport maktablari, sanitariya va tibbiyot muassasalari, madaniyat markazlari, O‘zbekdavlat sirkisi, obodonlashtirish boshqarmasi, va h.k);

- xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish uchun yo‘naltiriladigan budjet mablag‘larini oluvchilar (muzeylar, teatrler, siyosiy partiyalar, ilmiy – tadqiqot institutlari va h.k);

- davlat maqsadli jamg‘armalari (“El-yurt umidi” jamg‘armasi, Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi, Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi, Ta’lim kreditini moliyalashtirish jamg‘armasi va h.k);

- budjet tashkilotlarida tashkil etilgan boshqa jamg‘armalar;

b) korporativ buyurtmachilar:

- davlat korxonalari (“O‘zdonmaxsulot” AK, «Navoiy kon metallurgiya kombinati» AJ, «Navoiyazot» AJ, «O‘zavtosanoat» AJ, «Uzbekistan airways» AJ, «Toshshahartransxizmat» AJ, davlat banklari va h.k);

- ustav fondida (kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo’lgan yuridik shaxslar («Buxoroenergomarkaz» AJ, «O‘zbekko‘mir» AJ, «O‘zmetkombinat» AJ, «Olmaliq kon metallurgiya kombinati» AJ, «O‘zbekgidroenergo» AJ, dexqon bozorlari va h.k);

- ustav fondining (kapitalining) 50 foizi va undan ortig‘i 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushiga ega yuridik shaxsga tegishli bo’lgan yuridik shaxslar («UZauto Motors» AJ, «Buxoro xalqaro aeraporti» MChJ, «Mash’al professional futbol klubi» MChJ va h.k).

Davlat xaridlari tizimida ishtirok etish uchun maxsus axborot portalida ro‘yxatdan o‘tish bepul, muddatsiz, openid.uzex.uz sayti orqali amalga oshiriladi. Ro‘yxatdan o‘tish va auksionlarda ishtirok etish jarayoni elektron raqamli imzo

orqali amalga oshiriladi. Budget mijozlari ro'yxatdan o'tmaydilar, ular dxarid.uzex.uz hamda shop.uzex.uz veb-saytlaridagi shaxsiy kabinetlariga ERI kaliti yordamida darhol kira oladilar.


Elektron tizimlardan foydalanishda Xarid.uz portalida, shuningdek, dxarid.uzex.uz, exarid.uzex.uz, shop.uzex.uz, eshop.uzex.uz saytlaridan foydalanadi.

Quyidagi davlat subyektlari bilvosita davlat xarudlarida qatnashadi.

Ular:

- *Tashqi nazorat organlari* (O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi);
- *Hukumat* (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi);
- *Davlat va xo'jalik boshqaruv organlari* (nazoratni tashkil etuvchi organlar): - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi;
- Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligi;
- Davarxitekqurilish;
- *Tovarlar va xizmatlar yetkazib beruvchilar:* tovarlar (xizmatlar, ishlar) yetkazib beruvchi xo'jalik subyektlari;
- *Xaridni tashkil etish jarayoniga ko'maklashuvchi tashkilotlar:* - xizmat ko'rsatuvchi banklar;
 - transport-ekspeditorlik kompaniyalari;
 - maslahat va ekspertiza hamda boshqa tashkilotlar;
 - mavjud qonunchilik asosida ekspert baholash xizmatini amalga oshiruvchi boshqa tashkilotlar.

Davlat xaridlarida davlat ustunlik qiladi, iqtisodiy jarayonlarni tartibga soluvchi subyekti sifatida ishtirok etadi. Davlat xaridlari mexanizmi ma'lum sikl bo'lib o'z amalga oshirish jarayoni, me'yordi moliyalashtirish manbalari, xuquqiy asoslari, tartib tamoillari, taomillari, subektlari, amalga oshirish tartibi va uzviy bog'liqligiga ega, yani (1-rasm):



1-rasm. Davlat xaridlari mexanizmining aylanish sikli.

Birinchi qadamda - davlat buyurtmasini shakllantirish bosqichida-davlat hokimiyati organlari, budget mablag'larini oluvchilar va boshqaruvchilar tomonidan amalga oshiriladigan davlat talabining hajmi va nomenklaturasi asosida davlat buyurtmasining konsolidatsiyalangan ro'yxati shakllantiriladi.

Ikkinchi qadamda davlat buyurtmasi taklif sifatida ishlaydi - davlat organlari, budget muassasalari yoki boshqa vakolatli budget mablag'larini oluvchilar "davlat buyurtmachilari" sifatida turli xil mult shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarga tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlarni ko'rsatish taklifi bilan murojaat qilishadi. muddatlar, hajmlar, assortment va boshqalar.

Uchinchi qadamda tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha keyinchalik sotilishi (bajarilishi) kerak bo'lgan davlat buyurtmachisini eng maqbul qondiradigan shartlarni taklif qilgan ishtirokchisi bilan davlat shartnomasi tuziladi.

To'rtinchi qadamda xarid jarayoni yakunlanib tovar (ish, xizmat)ni yetkazib beruvchidan qabul qilish, saqlash yoki foydalanishga yo'naltirish,

shartnoma talablariga zid holat aniqlanganda ijrochiga qaytarish, uning ustidan shikoyat qilish, jarimaga tortish, sudga berish ishlari amalga oshiriladi.

Sikl ikki yo‘nalishda davom etaveradi:

- birinchisida yangi extiyojlarni qondirish bo‘lsa;

- ikkinchisida amalga oshmagan davlat xaridlarini qaytadan tashkillashtirishdir.

Davlat xaridlari mexanizmiga quyidagicha ta’rif berilishi uning mohiyatini kengroq ochib beradi. **Davlat xaridlari mexanizmi** – davlat buyurtmachilarining ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni qonunchilik xujjatlarida belgilangan talablar va tartib-taomillar asosida oldindan rejorashtirilgan pul mablag‘lari manbalaridan samarali foydalangan holda sotib olish jarayonidir.

Respublikamizda davlat xaridlari YaIMning 20% dan oshiqroqni tashkil etmoqda. Bunda davlat xaridlari tizimini isloh qilish, innovatsion texnologiyalar va ilg‘or xorij tajribalarini amaliyotga tatbiq etish orqali davlat xaridlari samaradorligini oshirishga hamda davlat xaridlarida yuzaga chiqayotgan muammolarni yechimini topish kabi dolzarb masalalrga asosiy e’tibor qaratilmoqda.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra 2023 yilning o‘zida 253 trillion so‘mlik davlat xaridlari amalga oshirilgan. Bu yalpi ichki mahsulotning 23,8 foizini tashkil etgan bo‘lib, xaridlar 2022 yilning mos davriga nisbatan qariyb 24 foizga oshgan.



Shundan, **budget buyurtmachilarining** xaridi 77 trln.so‘mni yoki 30 foizni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 10,6 foizga, hamda davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo‘lgan korxonalarining xaridi 176 trln.so‘mni yoki 70 foizni tashkil etgan bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 30,7 foizga oshgan.¹

2022 yil natijalariga ko‘ra, davlat buyurtmachilari tomonidan 115 trillion so‘mlik xaridlarni raqobatli tarzda amalga oshirish natijasida 8,2 trillion so‘m mablag‘ iqtisod qilinishiga erishilgan. Shuningdek, amalga oshirilgan xaridlarning eng ko‘p ulushi Toshkent shahri (39,6 foiz), Toshkent viloyati (14,8 foiz), Andijon viloyati (13,2 foiz) va Navoiy viloyati (12,6 foiz) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Tahlillarga ko‘ra, davlat budgetining g‘azna ijrosini qamrab olgan budget buyurtmachilari tomonidan 2021-2023 yillarda jami 3,3 mln shartnomalar asosida 203,5 trln.so‘mlik xaridlar amalga oshirilgan (1.1.-jadval).

1.1.-jadval.


Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarda Davlat xaridlarining o‘rnii.²

Nomi	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 I chorak
Yalpi ichki maxsulot (trln.so‘m)	426 641	532712.5	605514.9	738425.2	896617.9	1066569.0	1 300.0
Iqtisodiyotning o‘sishi (foizda)	5.1	6.0	2.0	7.4	5.7	6.0	5.8
AQSh dollarining yil boshiga kursi (so‘mda)	8136,7	8839	10056	10594	11 050	11 741	12655
YaIM (mln. AQSh dollarida)	52434,2	57711.9	60200.0	69600.0	80 384.0	90 841.0	104800
Xizmat ko‘rsatish	23,9	36.2	35.5	35.5	35.2	34.3	55,8
Qishloq xo‘jaligi	30,8	28.1	29.5	29.3	28.4	27.9	6,8
Qurilish	8,1	6.6	7.0	7.1	7.5	7.6	6,3
Sanoat mahsulotlarining ulushi	37,2	29.1	28.0	28.1	28.9	30.2	28,3
Budget xarajatlari (trln.so‘m)	79 736,1	118 007,7	142 497.8	149950.5	236 692	281 097	70 339.6
Davlat xaridlari Yalpi ichki maxsulotga nisbatan (%)			12-13	12-13	26.6	26.4	29
Davlat xaridlari Budget xarajatlariiga nisbatan %			42-45	20.1	21,1	18.8	19.2
Davlat xaridlari (trln.so‘m)	1 960,7	3 801,1	4 176.9	147 400.0	204543.2	253 300.0	49 700
Shartnomalar soni	521 116	703 091	754 468	1 158 341	1 505 502	1 505 588	588 675
Davlat xarididan iqtisod qilinishi	323,3	805,8	914.2	5 800.0	14 300.0	8 200.0	3 903,0

² Muallif tomonidan tayyorlangan.

(mlrd.so‘m)							
Elektron do‘kon (mlrd.so‘m)	593,7	1 029,2	979,8	3 316,4		13 900	786.2
Shartnomalar soni	399 351	580 213	540 741	637 496		867 659	111 302
Elektron auksion(mlrd.so‘m)	1367,0	2 771,9	2821,2	3 781,3		1 800	52,5
Shartnomalar soni	121 765	122 878	132485	107 898		50 600	3 872
Elektron tanlash (mlrd.so‘m)						44 500	5 778.3
Shartnomalar soni						70 005	8197
Elektron tender (mlrd.so‘m)						21 300	1 318.8
Shartnomalar soni						16 673	476
Raqobatsiz usullar			375,9	2 357,8		138 200	11 289.6
Shartnomalar soni			116 442	259 852		439 679	128 286
Budjet buyurtmachilari(mlr d.so‘m)	1101,9	1677,3	1 766,6	4415,1	69590.0	76 900.0	19 250.9
Shartnomalar soni	419 758	490 679	500 696	701 252	1062830		253 200
Korporativ buyurtmachilar(mlr d.so‘m)	859,3	2 123,8	2 409,8	5 039,6	134953.2	176 400.0	30 400
Shartnomalar soni	101 358	212 412	223 772	303 989	442672		


Yuqoridagi raqamlardan ko‘rishimiz mumkinki budjet xarajatlari o‘sish tendensiyasini saqlamoqda (2-rasm)



2-rasm. Davlat budjeti xarajatlarining o‘zgarish dinamikasi.

“Xaridlar tarkibiga ko‘ra, qurilish – 66 trln.so‘m, ta’mirlash – 44 trln.so‘m, asosiy vositalar xaridi – 18 trln.so‘m, kommunal xizmatlar – 20 trln.so‘m, boshqa tovar va xizmatlar xaridi 54 trln.so‘mni tashkil qilgan. O‘rganishlarda davlat budjeti mablag‘lari hisobiga xarid qilingan tovarlar aylanmasining ayrim ta’minotchi korxonalar soliq hisobotida kamaytirib ko‘rsatilgani natijasida 1,8 trln.so‘mlik soliqlar bo‘yicha risklar aniqlangan.

Yuqoridagi raqamlardan davlat xaridlari ko‘rsatkichlaridagi o‘sish tendensiyasi 2018 yildan, ya’ni “Davlat xaridlari to’g‘risida”gi qonun qabul qilingandan so’ng yuqorilab ketganini ko‘rshimiz mumkin (3-rasm)



3-rasm. Davlat xaridlarining o‘zgarish dinamikasi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, davlat xaridlari mexanizmi mamlakatimizda tartibga solindi, huquqiy asoslari jahon andozalariga moslandi, korrupsiyadan yiroq bo‘lgan elektron xarid tizimi yaratildi.

Davlat xaridlari tizimini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha elektron platformalarda tovar (ish, xizmat)larni joylashtirish, ularni iste’molchilarga arzon narxlarda sotish va ular tomonidan sotib olish imkoniyatlarini, xarid qilishning xorij tajribasidan kelib chiqib yangicha uslublarini tadbiq etishimiz lozim. Shuningdek davlat xaridlari mexanizmini ishtirokini keng jabxalarga jalb qilish, ya’ni:

- mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar bilan to‘ldirish;

- mamlakatimiz va uning hududlarida yanada qulay biznes-muhit yaratish, davlat xaridlariga yo‘naltirilgan qonun hujjatlarini takomillashtirish, tadbirkorlikka ko‘proq erkinlik berish, davlatning xariddagi boshqaruv funksiyalari va ruxsat beruvchi normalarni qisqartirish;
- davlat va nazorat organlarining tadbirkorlik subyektlarini davlat xaridlari faoliyatiga aralashuvini keskin qisqartirish;
- xarid subyektlariga soliq va boshqa to‘lovlar bo‘yicha yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, imtiyoz va preferensiyalar berish, hamda moliya, soliq va statistika organlariga hisobotlar topshirish mexanizmini takomillashtirish va yagona elektron bazada integrasiyalash.

Yana bir bor ta’kidlaymizki, hozirgi vaqtda davlat xaridlari tartib tamoyillarida doimiy ravishda takomillashtirish, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishni ta’minalash nuqtau nazaridan ustuvor vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Налбандян А.А. Сравнительный анализ опыта развитых стран в организации системы государственных закупок. Вестник РУДН, серия Экономика, 2013, № 5. 118-127 с.
2. У.Бурханов. Государственные закупки, http://el.tfi.uz/pdf/gos_zakup_ru.pdf.
3. O‘zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-sон Qonuni
4. U.Burhanov, T.Atamurodov. “Davlat xaridi”o‘quv qo‘llanmasi. Tafakkur bo‘stoni 2012.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni (IV. Qonun ustuvorligini ta’minalash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish).
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 09 dekabrdagi 3358-sonli “Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2021-2023 yilgi hisobotlari.